



ABDUSAID KO'CHIMOV "BOYCHECHAK" HIKOYASINING BADIY TAHLILI

Ablaqulova Gulhayo Diyor qizi

O'zMPU Filologiya Fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 4-kurs talabasi

guliablaqulova1830@gmail.com**Nargiza To'xtayeva**

Ilmiy rahbar:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20196275>

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy o'zbek bolalar nasrining rivojlanish tendensiyalarini, badiiy-estetik o'ziga xosliklarini va zamonaviy adabiy jarayondagi o'rnini tadqiq etishga bag'ishlanadi. Asosiy e'tibor mustaqillik davri bolalar adabiyotidagi mavzu boyligi, janr xilma-xilligi, psixologik realizm, tabiat va inson munosabatlarining ifodasi hamda zamonaviy bolalar ruhiyatiga murojaatga qaratiladi. Maqolada zamonaviy o'zbek bolalar adabiyotining yetakchi namoyandalaridan biri Abdusaid Ko'chimov ijodi, xususan, "Boychechak" hikoyasi misolida bolalar nasriy asarlarining o'ziga xos badiiy xususiyatlari alohida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy bolalar nasri, badiiy jarayon, psixologik realizm, tabiat tasviri, bolalar nasri, milliy an'analar, Abdusaid Ko'chimov, "Boychechak", badiiy tahlil, pedagogik ahamiyat.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению тенденций развития современной узбекской детской прозы, художественно-эстетической специфики и места в современном литературном процессе. Основное внимание уделяется тематическому богатству, жанровому разнообразию, психологическому реализму, выражению отношений природы и человека, а также обращению к современной детской психике. В статье отдельно анализируются особенности детской прозы на примере творчества одного из ведущих представителей современной узбекской детской литературы Абдусаида Кучимова, в частности, рассказа «Бойчечак».

Ключевые слова: современная детская проза, художественный процесс, психологический реализм, изображение природы, детская литература, национальные традиции, Абдусaid Кучимов, «Бойчечак», художественный анализ, педагогическое значение.

Abstract: This article explores the development trends of modern Uzbek children's prose, its artistic and aesthetic specificity, and place in the modern literary process. The main focus is on thematic richness, genre diversity, psychological realism, expression of nature and human relations, and addressing the modern



child's mentality. The article separately analyzes the peculiarities of children's prose on the example of the work of Abdusaid Kochimov, one of the leading representatives of modern Uzbek children's literature, particularly the story "Boychechak."

Keywords: Modern children's prose, artistic process, psychological realism, depiction of nature, children's literature, national traditions, Abdusaid Kochimov, "Boychechak," artistic analysis, pedagogical significance.

Kirish

Zamonaviy o'zbek adabiyotida bolalar nasri alohida o'rin tutadi. Adabiyotning eng mehrligi va mas'uliyatli turlaridan biri hisoblangan bolalar adabiyoti bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida, ularning estetik didini shakllantirishda, milliy ong va vijdonini uyg'otishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bolalar adabiyotining tarixiga nazar solsak, o'zbek milliy bolalar adabiyoti XX asr boshlarida shakllana boshlagan. G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Tog'ay Murod, Xudoyberdi To'xtaboyev, Anvar Obidjon, Zulfiya, Erkin Vohidov kabi adiblarimizning bolalar uchun yozgan asarlari zamonaviy bolalar adabiyotining mustahkam poydevorini tashkil etdi. Mustaqillikdan so'ng o'zbek bolalar adabiyoti yangi bosqichga ko'tarildi. Milliy qadriyatlarga, ona tiliga, Vatanni sevish, bolalar psixologiyasiga chuqur murojaat qilishga bo'lgan e'tibor kuchayishi natijasida zamonaviy bolalar nasri jiddiy rivojlanishga erishdi. Yaratilgan asarlarda insonni ulug'lash, Vatanga mehri va sadoqat, qadriyatlarimizga hurmat g'oyalari badiiy ifodada o'z aksini topdi. Ayniqsa, zamonaviy o'zbek bolalar nasrida yangi mavzu va janrlar boyicha boyib, badiiy-estetik jihatdan yangilandi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, zamonaviy adabiyotshunoslikda bolalar nasri umumiy jihatdan o'rganilgan bo'lsa-da, aynan bugungi adabiy jarayondagi zamonaviy yozuvchilar, xususan, Abdusaid Kochimov kabi tajribali adiblar ijodining o'ziga xosligi, ularning badiiy-estetik xususiyatlari, pedagogik ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilmagan. Ushbu maqola mazkur bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Mustaqillik davri bolalar nasrining rivojlanishi

Mustaqillikning birinchi va ikkinchi o'n yilligi orasida bolalar nasrimiz tez rivojlana boshladi. So'ngi yillar bolalar nasri shakl va mazmun tomondan yangilandi, janr imkoniyatlari kengaydi. San'atkorlar jahon bolalar nasrining barhayot tajribalaridan unumli foydalana boshladilar. Bu yillar an'analarga ko'ra ko'plab hikoya, qissa va romanlar dunyoga keldi. Bolalar nasrining rivojlanishi va yangilanishi mavzu ko'lamining kengayishida yaqqol ko'rinadi. Tarixiy mavzularda bolalar uchun yozilgan asarlar soni ortdi. Buyuk ajdodlarimizning hayoti, milliy tarixning muhim sahifalari bolalar tilida badiiy talqin etila boshladi. Zamonaviy mavzularda ham ko'plab asarlar yaratildi. Bu asarlarda jamiyatdagi turli muammolarni — ekologiya, axloqiy qadriyatlarining parchalanishi, oilaviy





munosabatlarning o'zgarishi kabi muammolarni bolalar tushunadigan tilga solishga harakat qilindi.

Bolalar nasrida janr xilma-xilligi kuchaydi. Hikoya, qissa, hikoya, roman janrlarida yangi asarlar yaratildi. Ayniqsa, bolalar psixologiyasiga chuqur murojaat qiluvchi asarlar soni ortdi. Yangi tasvir uslublari, yangi ifoda vositalari qo'llanila boshladi.

Bugungi o'zbek bolalar nasrining o'ziga xos tamoyillari va janr xususiyatlari bir necha jihatlar bilan namoyon bo'ladi:

Psixologik realizmning rivojlanishi. Zamonaviy nasrda bolalarning ichki dunyosi, ruhiy kezishmalar, xotira va orzular chuqur tadqiq etiladi. Bu asarlar bolalarni o'zini-o'zi tanishga, atrofdagi dunyoni anglashga undaydi.

Tabiat va inson munosabatlarining ifodasi. Zamonaviy asarlarda tabiat go'zalliklari, uning bolalar ruhiyatiga ta'siri, ekologiya muammolari keng yoritiladi. Bolalar tabiatni sevish, uni asrab-avaylashga undaladi.

Tarbiyaviy va estetik ahamiyat. Bolalar nasri nafaqat o'yin-kulgi vositasi, balki ma'naviy-axloqiy tarbiya, estetik did shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Asarlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik, mehribonlik g'oyalari keng yoritiladi.

Milliy an'analar va zamonaviylikning uyg'unlashuvi. Asarlarda milliy urf-odatlar, bayramlar, o'yinlar keng yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar, global muammolar, bolalarning zamonaviy hayoti ham aks etadi.

Tilning boyligi va ifodaliligi. Bolalar nasrida tilning sodda, ravon, boy va ifodali bo'lishiga alohida e'tibor beriladi. Tasvirli so'zlar, taqlid so'zlar, til o'yinlari keng qo'llaniladi.

Abdusaid Ko'chimov ijodi va uning o'rni zamonaviy o'zbek adabiyotida

Zamonaviy o'zbek adabiyotining yetakchi namoyandalardan biri Abdusaid Ko'chimov 1951-yilda Samarqand viloyati Urgut tumanida tug'ilgan. 1968-1972-yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining o'zbek tili va adabiyoti fakultetida tahsil olgan. Mehnat faoliyatini 1972-yilda O'qituvchi nashriyotida korrektor sifatida boshlagan. So'ngra "Lenin uchquni" (keyinchalik "Tong yulduzi") gazetasida muxbir, bo'lim mudiri, mas'ul kotib, "Sharq yulduzi" jurnalida mas'ul kotib, yana "Lenin uchquni" gazetasida bosh muharrir lavozimlarida ishlagan. 1991-1992-yillarda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi kotibi, 1992-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bo'lim mudiri, 1992-1996-yillarda O'zbekiston teleradiokompaniyasi rais o'rinbosari, 1996-1997-yillarda Prezident devoni Axborot markazi rahbari, 1997-2005-yillarda O'zbekiston teleradiokompaniyasi raisi, 2006-2017-yillarda "Xabar" gazetasi bosh muharriri, 2017-yildan boshlab O'zbekiston Milliy axborot agentligi Bosh direktori





lavozimlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Abdusaid Ko'chimov o'zining ijodiy faoliyati davomida zamonaviy o'zbek adabiyotining, xususan, bolalar adabiyotining rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan. Adibning "Kashfiyotchi bolalar" (1978), "Mening O'zbekistonim" (1979), "Toshburgut" (1981), "Mening yulduzim" (1984), "Halqa" (1987), "Umid daraxtlari" (1992), "Qiyofa" (1996), "Baland tog'lar" (2002), "Ko'zlarimning qarog'idasan" (2006), "Muhabbat bog'lari" (2008), "El suv ichgan daryolar" (2009), "Safar" (2010), "Saylanma" (2011) kabi nasriy asarlari, "Chanoq" (1985), "Ikki bahor" (1990), "Yosuman" (2000) kabi she'riy to'plamlari nashr etilgan. Adib 1994-yilda "Shuhrat" medali, 1999-yilda "Mehnat shuhrati" ordeni, Xalqaro YUNESKO mukofoti (tabiatni asrab-avaylash mavzusidagi asarlari uchun), G'afur G'ulom nomidagi yillik mukofot ("Halqa" kitobi uchun) bilan taqdirlangan. Abdusaid Ko'chimovning ijodida bolalar va o'smirlarga bag'ishlangan asarlar alohida o'rin tutadi. Uning asarlari bolalar psixologiyasiga chuqur murojaat, tabiat tasvirining go'zalligi, milliy an'analar va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unlashuvi jihatlari bilan ajralib turadi.

"Boychechak" hikoyasining badiiy tahlili

"Boychechak" hikoyasi Abdusaid Ko'chimov ijodining eng yorqin namunalaridan biri hisoblanadi. Bu hikoya bolalar adabiyoti sohasida o'ziga xos o'rin egallagan va 2001-yilda ikki qismli badiiy film sifatida ekranlashtirilgan. Hikoya bolalar hayoti, tabiat, mehnat va do'stlik mavzularida yaratilgan bo'lib, zamonaviy o'zbek bolalar nasrining yetakchi namunalaridan biri hisoblanadi.

Janr va kompozitsion tuzilma. "Boychechak" hikoyasi bolalar hikoyasi janrida yozilgan. Asar an'anaviy hikoya kompozitsiyasiga ega bo'lib, ekspozitsiya, zavjara, kulminatsiya va razvyazkadan iborat. Hikoyaning boshida qishloq hayoti, bolalarning kundalik mashg'ulotlari, ularning tabiat bilan uyg'unlashgan hayoti tasvirlanadi. Bu ekspozitsiya orqali o'quvchi asarning voqea-hodisalari ro'y beradigan muhit bilan tanishadi. Zavjara qismida voqealar rivojlanishi, qahramonlar o'rtasidagi munosabatlar, ularning duch kelgan muammolari tasvirlanadi. Kulminatsiyada asarning eng yuqori nuqtasi — qahramonlarning duch kelgan eng katta qiyinchilik yoki sinov tasvirlanadi. Razvyazkada esa voqealar yechimi, qahramonlarning o'zgarishi, ularga yetgan saboqlar ifodalanadi.

Qahramonlar tahlili. "Boychechak" hikoyasida asosiy qahramonlar — bolalar tasvirlangan. Ularning har biri o'ziga xos xarakterga, shaxsiy xususiyatlarga ega. Asosiy qahramon mehnatsevar, tabiatni sevuvchi, do'stlariga sodiqlik ko'rsatadigan bola obrazi sifatida tasvirlangan. Uning xarakteri orqali yozuvchi bolalarni mehnatsevarlik, halollik, do'stlik kabi fazilatlarga tarbiyalashga intiladi.





Yordamchi qahramonlar — do'stlari, oila a'zolari, qishloq ahli ham o'ziga xos xarakterlarga ega. Ular orqali qishloq hayotining turli jihatlarini, jamiyatdagi o'zaro munosabatlar, milliy urf-odatlar tasvirlanadi. Antagonist rolini muammolar, qiyinchiliklar, tabiatning o'zgaruvchan sharoitlari bajaradi. Bu qahramonlar o'rtasidagi ziddiyatlar hikoyaning drammatizmini oshiradi.

Tabiat tasviri va ekologik ahamiyat. "Boychechak" hikoyasida tabiat tasviri alohida o'rin tutadi. Yozuvchi qishloq manzaralarini, tog'lar, daryolar, o'simliklar dunyosini tasvirlash orqali bolalarning tabiatga bo'lgan muhabbatini uyg'otadi. Tabiat nafaqat fon vazifasini bajaradi, balki hikoyaning muhim qahramonlaridan biriga aylanadi.

Hikoyada ekologiya muammolari, tabiatni asrab-avaylash zarurligi, uning boyliklaridan oqilona foydalanish g'oyalari keng yoritiladi. Bu jihat hikoyaning pedagogik ahamiyatini oshiradi va zamonaviy ekologik ong shakllantirishga xizmat qiladi.

Til va uslub. Abdusaid Ko'chimov "Boychechak" hikoyasida sodda, tushunarli, ammo badiiy jihatdan boy til qo'llagan. Bolalar tiliga mos ifodalar, tasvirli so'zlar, taqlid so'zlar keng qo'llaniladi. Dialoglar orqali qahramonlar xarakteri ochib beriladi, ularning o'ziga xos xususiyatlari namoyon etiladi.

Yozuvchi o'ziga xos tasvir uslubiga ega. U mayda tafsilotlarga e'tibor berib, ular orqali katta ma'noni ifodalashga erishadi. Tabiat tasvirlarida rang-baranglik, jonliqlik, harakatlilik kuzatiladi. Bu o'quvchilarning tasavvurini ishga solib, asarning ta'sirchanligini oshiradi.

G'oyaviy mazmun va pedagogik ahamiyat. "Boychechak" hikoyasining asosiy g'oyaviy mazmuni mehnatsevarlik, do'stlik, tabiatni sevish, ota-onaga hurmat, Vatanparvarlik kabi qadriyatlardan iborat. Hikoya bolalarni mehnatga, o'z-o'zini ishga solishga, do'stlariga yordam berishga undaydi.

Tabiat tasviri orqali ekologik tarbiya beriladi. Bolalar tabiatni asrab-avaylash, uning boyliklaridan oqilona foydalanish, keyingi avlodlarga yaxshi muhit qoldirish zarurligini anglaydilar. Hikoyaning pedagogik ahamiyati shundaki, u nafaqat badiiy qimmatga ega, balki bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida, estetik didini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Asar bolalarni yaxshilikka, insonparvarlikka, mehribonlikka undaydi.

"Boychechak" hikoyasi zamonaviy o'zbek bolalar nasrining rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan. Bu hikoya quyidagi jihatlarini bilan ajralib turadi:

Mavzuiy yangiligi. Hikoya qishloq bolalarining hayoti, ularning mehnati, tabiat bilan uyg'unlashuvi kabi yangi mavzularni ko'taradi. Bu mavzular zamonaviy bolalar hayotiga yaqin va ularning qiziqishini uyg'otadi.





Badiiy uslubining o'ziga xosligi. Yozuvchi an'anaviy hikoya uslubini zamonaviy ifoda vositalari bilan boyitib, yangicha badiiy ta'sirchanlikka erishgan. Tabiat tasvirlari, qahramonlar psixologiyasi, dialog san'ati jihatidan hikoya o'ziga xos o'rin tutadi.

Pedagogik samaradorligi. Hikoya bolalarni nafaqat o'qishga, balki mehnatga, tabiatni asrab-avaylashga, do'stlik qilishga undaydi. Bu jihat hikoyani zamonaviy bolalar adabiyotining muhim namunasiga aylantiradi.

Ekranlashtirilishi. Hikoya 2001-yilda ikki qismli badiiy film sifatida ekranlashtirilgan. Bu hikoyaning ommaviyligini oshiradi, uning ta'sir doirasini kengaytiradi. Film orqali hikoya ko'proq o'quvchilarga, tomoshabinlarga yetib boradi.

Abdusaid Ko'chimov boshqa asarlarida bolalar ruhiyati

Abdusaid Ko'chimovning boshqa asarlarida ham bolalar va o'smirlarga murojaat qilingan. "Kashfiyotchi bolalar" (1978) asarida bolalarning sarguzashtlari, ularning kashfiyotlar qilishga bo'lgan intilishi tasvirlangan. "Mening O'zbekistonim" (1979) asarida Vatan muhabbati, uning go'zalliklari, tarixiy obidalari keng yoritilgan.

"Toshburgut" (1981) asarida bolalarning jasorati, ularning muammolarni yechishdagi iqtidori namoyish etilgan. "Mening yulduzim" (1984) asarida bolalarning orzu-umidlari, ularning kelajakka bo'lgan ishonchi ifodalanadi. "Umid daraxtlari" (1992) asarida ekologiya muammolari, tabiatni asrab-avaylash g'oyalari keng yoritilgan.

"Halqa" (1987) asari yozuvchiga G'afur G'ulom nomidagi yillik mukofotni olib bergan. Bu asar o'smirlar psixologiyasiga chuqur murojaat qilib, ularning ichki kezishmalarini, sevgi-muhabbat tuyg'ularini badiiy talqin etadi.

Zamonaviy bolalar nasrining muammolari va istiqbollari

Bugungi o'zbek bolalar nasrida ba'zi muammolar ham mavjud:

G'oya ustivorligi. Ba'zi asarlarda g'oya ustivorligi seziladi, badiiy qimmat ikkinchi o'rinda qoladi. Bu asarlarning badiiy ta'sirchanligini pasaytiradi.

Taqlidchilik va sayozlik. Ba'zi zamonaviy asarlarda, ayniqsa tarjima asarlarda taqlidchilik, sayozlik kuzatiladi. Bu asarlar chuqur psixologik tahlildan mahrum bo'ladi.

Muhokamalar va taqrizlarning kamchiligi. Zamonaviy bolalar nasri asarlariga adabiy tanqidiy muhokamalar, taqrizlar juda kam e'lon qilinayotgani afsuski, bugungi kun muammolaridan biriga aylanib qoldi.

Yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash. Kelajakda yosh ijodkorlarimiz mohirona qalam tebratishlari uchun hozirdanoq imkon yaratmoq lozim. Har bir tuman markazlarida ijodxonalar tashkil qilinishi, maktablarida, madaniyat markazlarida yosh qalamkashlar to'garaklari doimiy ravishda faoliyat yuritishi, bu albatta har bir





ijodkorni ilhomlantiradi, mehnatga chorlaydi va kun kelib ulardan shoh asarlar chiqishi muqarrar.

Xulosa

Bugungi o'zbek bolalar nasri mustaqillikdan oldingi davrga nisbatan mavzuiy jihatdan boyib, janriy jihatdan xilma-xillashdi, bolalar psixologiyasiga chuqurroq murojaat qila boshladi. Zamonaviy bolalar nasri nafaqat badiiy qimmatga ega, balki jamiyatda milliy ong, ma'naviy-estetik tarbiya, ekologik ong kabi muhim fazilatlarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Abdusaid Ko'chimov ijodi zamonaviy o'zbek bolalar nasrining rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan. Uning "Boychechak" hikoyasi janr xilma-xilligi, bolalar psixologiyasiga chuqur murojaat, tabiat tasvirining go'zalligi, milliy an'analar va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unlashuvi, pedagogik ahamiyati jihatlari bilan ajralib turadi. Hikoya 2001-yilda ikki qismli badiiy film sifatida ekranlashtirilgan bo'lib, bu uning ommaviyligini yanada oshirgan. Adibning "Kashfiyotchi bolalar", "Mening O'zbekistonim", "Toshburgut", "Mening yulduzim", "Halqa", "Umid daraxtlari", "Baland tog'lar", "Ko'zlarimning qarog'idasan", "Muhabbat bog'lari", "El suv ichgan daryolar" kabi asarlari ham zamonaviy o'zbek adabiyotining muhim namunalari hisoblanadi.


Ayniqsa, quyidagi xususiyatlar alohida ta'kidlanishi lozim:

1. Mavzuiy boylik va janr xilma-xilligi — bolalar hayoti, tabiat, mehnat, do'stlik mavzularining rivojlanishi;
2. Psixologik realizm va bolalar psixologiyasiga chuqur murojaat;
3. Tabiat tasvirining badiiy go'zalligi va ekologik ahamiyati;
4. Milliy an'analar va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unlashuvi;
5. Til ma'naviyati va badiiy ifoda vositalarining boyligi;
6. Pedagogik ahamiyati va tarbiyaviy ta'siri;
7. Asarlarning ekranlashtirilishi va ommaviyligi.

Kelajakda bolalar nasrida zamonaviy texnologiyalar, global muammolar, ekologiya, sun'iy intellekt kabi yangi mavzular ham yoritilishi, asar va ekran talqini uyg'unlashuvi kuchaytirilishi lozim. Bolalar nasri doim bolaga murojaat qiladi, uning qalb sirlarini ochishga intiladi, bolalarning o'zaro munosabatlar mohiyatini anglashga harakat qiladi, bu bola katta yoki kichik bo'lishining ahamiyati yo'q.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Solijonov Y. Hozirgi adabiy jarayon. — T.: "Innovatsiya-Ziyo", 2020.
2. Isokova M. Bolalar adabiyoti nazariyasi. — T., 2021.
3. Tashmuxammedova L. Adabiyot tarixi va nazariyasi.
4. To'laxo'jayova M., Qozoqboev T. Bolalar adabiyoti nazariyasi. — T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2014.





5. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. — T.: G'G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.
6. Normatov U. Hayot va hajviyot. Nafosat gurunglari. Toshkent: "Muharrir", 2010.
7. Tulabayeva R. Zamonaviy o'zbek bolalar adabiyoti. O'zbekiston: til va madaniyat. Adabiyotshunoslik, 2023, 1 (2): 110-120.
8. Ziyouz.uz — Abdusaid Ko'chimov tarjimai holi va ijodi.
9. Kitobxon.com — Abdusaid Ko'chimov asarlari, kitoblari.
10. Vikipediya — Abdusaid Ko'chimov maqolasi.

